

## **BOLALAR ORASIDA AVJ OLGAN ONLAYN O‘YINLARIGA QARAMLIKNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI**

*Babajonova Nargiza Po‘latboy qizi*

*Xorazm viloyati Bog‘ot tumani 23-sон  
umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixolog*

*Toxirova Sabohat Yo‘ldosh qizi*

*Xorazm viloyati Bog‘ot tumani 2-AFCHO ‘SM  
umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixolog*

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada bugungi kunda virtual olam ta’sirini kuchayishi, shaxsdagi internet va kompyuter o‘yinlariga tobeklikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari fikr yuritiladi.

**Kalit so‘z:** ijtimoiy ong, internet, virtual borliq, tobeklik, elektron, OAVlarning yoshlarga psixologik ta’siri, ommaviy kommunikatsiya, neyrolingvistik dasturlash, elektron o‘yinlar.

### **KIRISH**

Biz yashab turgan yangi dunyoda texnologiyalar misli ko‘rilmagan darajada rivojlanmoqda va kompyuterlar oddiy, hatto zarur narsalarga aylandi. Internetning afzalliklari haqida hamma biladi, aksariyat odamlar undan nafaqat ma’lumot qidirish, balki virtual olamga haqiqatdan qochish uchun ham foydalanadilar. Virtual borliq - bu inson tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan dunyo. Virtual reallikning so‘ngi texnologiyalari sizga xayoliy dunyoga to‘liq sho‘ng‘ish uchun ko‘zoynak va dubulg‘a yaratishga imkon beradi. Ular sizga haqiqiy hayotdan butunlay uzoqlashishga imkon beradi.

Yangi texnologiyalar haqida bilib, odamlar virtual olamga shoshilishmoqda, ammo ular virtual haqiqatning psixologik ta’siri xavfli bo‘lishi mumkinligini unutishadi. Bugungi kunda hayot muammolaridan qochib, boshqa dunyoga tushib ketishingizga imkon beradigan ko‘plab qurilmalar mavjud. Virtual haqiqat tizimining rivojlanishi shu darajaga yetdiki, odam tom ma’noda ikkinchi dunyoda yashaydi, o‘zini virtual olamga to‘liq singdiradi.

Virtual borliq bizga boshqa dunyoga tashrif buyurish, dam olish va muammolardan tanaffus qilish, shuningdek yangi hissiyotlarni olish imkoniyatini beradi, ammo uning salbiy tomonlari ham bor. Virtual olamga tez-tez sho‘ng‘ish bilan, odam o‘z qahramonining roliga juda odatlanib qolishi mumkin, bu uning hayotdagi xatti-harakatlariga ta’sir qiladi. Shuningdek, odam vaqt boshqaruvini yo‘qotishi va antisotsial bo‘lishi mumkin.

Internetga qaramlik psixologik muammolarni keltirib chiqaradi:

Xo'sh, internetga haddan ortiq bog'lanib qolishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Tobelik birinchi navbatda ziddiyatli xatti-harakatlar, surunkali depressiya, real ijtimoiy munosabatlardan virtual olamni afzal ko'rish, jamiyatdagi moslashish qiyinchiliklari, ijtioiy noqulaylik, internetdan foydalanish qobiliyatining susayishiga olib kelishi mumkin.

Internetdan foydalanish, o'smir shaxsida "o'qish" va "o'rganish"ga intilish o'rniga "izlash"ni afzal ko'rishni yuzaga keltiradi.

Ko'pgina yoshlar ota-onalari tomonidan taqiqlangan saytlarga tez-tez tashrif buyurishlarini ochiq tan olishadi. Bu saytlar pornografiya va o'z joniga qasd qilish, terroristikni targ'ib qiluvchi, video o'yinlarga qaramlik va millatchi tashkilotlarni aks etiruvchilardir. Bundan tashqari, ko'plab buzg'unchilik maqsadida tashkil etilgan saytlar o'spirinlarda ruxsat etilganlik va jazolanmaslik ilyuziyasini shakllantirshini o'z oldiga vazifa qilib olgan. Bu ijtimoiy normalarni buzilishi, qilishi uchun javobgarlik hissini yo'qolishi, axloqiy qadryatlar tizimini izdan chiqarishi mumkin.

Internetga qaram shaxslarning asosiy muammolar o'zini o'zi qabul qilish sohasidir. Qaram o'smirlar atrofdagilar bilan yaqin muloqot qilishda va o'zlarini namoyon etishida qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Ularda ko'p hollarda o'z "Men"i va tanadagi ehtiyojlarini anglashda ham jiddiy muammolar kuzatiladi. Bundan tashqari o'z-o'ziga baho hamda o'z-o'zini qadrlash mexanizmlariga ham jiddiy putur yetishi mumkin.

Internetni jalb qilish ishni boshqarish istagi bilan bog'liq kompyuter dasturlari; ular boshqarishi mumkin bo'lgan ushbu moyillik inson munosabatlari sohasi va odamlarni manipulyatsiya qilishga urinislari ko'pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi, bu bolalarni yopiqlik holatiga hamda dezadaptatsiyaga olib kelishi mumkin. Zamonaviy bolalar kompyuter o'yinlari olami hamda ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o'sib, ulg'aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Bolalar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo'lib qoladilar. Bolalar va o'smirlar Internet tarmog'ida sayr qilarkan, ularga umuman kirish mumkin bo'limgan saytlarga duch kelishlari mumkin.

Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan bola va o'smirni o'ziga ko'proq jalb etadi. Biror harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda shunchalik yuqori darajada qiziqish uyg'onishi barchaga ma'lum. O'smirlar tarmoqdagi nosog'lom turmush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelsalar, yanada qiziqib, mazkur axborotlarga alohida e'tibor qaratishlari ehtimoldan holi emas. Shu sababdan kattalar farzand tug'ilgan kundan boshlab ulariga issiq choynak, qozonlarga yaqinlashish, pichoq, qaychi kabi o'tkir uchli narsalarga tegish

mumkin emasligini onglariga singdirganlari kabi, tarmoqdagi axborotlar ham xavfli ekanligini tushuntirishlari, ularda axborotlardan to‘g‘ri foydalanish salohiyatlarini shakllantirishlari zarur. Albatta, Internet tarmog‘i manbalari zamonamiz o‘smirlari bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan ayrim jihatlariga ko‘ra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta’sir ko‘rsatishi ham mumkinligini unutmasligimiz zarur.

Yaqindagina ota-onalar bolalarning kompyuter o‘yinlariga berilib, ularga bog‘lanib qolishlari xavfidan cho‘chib, oldini olishga harakat qilgan bo‘lsalar, hozirgi vaqtida bu xavfga yana ijtimoiy tarmoqlar xavfi ham qo‘shildi. Bolalar va o‘smirlarning hovli va ko‘chalardagi muloqotlari hozirda haqiqiy hayotdan asosan, aynan, chetichegarasi yo‘q ijtimoiy tarmoqlarga ko‘chdi. Mazkur muloqotlar bolalarga shunisi bilan ham qiziqroqki, avvolo, tarmoqda o‘zlariga ko‘proq «do‘st» orttirish imkonи mavjud. Tarmoqda muloqot qilarkan, bolalar o‘zlarini omadli bola qilib ko‘rsata oladilar.

O‘zgalar rolida o‘zlarini taqdim etib, turli yolg‘on dunyolarga berilib ketadilar. Uyatchang va tortinchoq bolalar uchun ehtimol tarmoqdagi muloqotlarning foydali jihatlari bordir, vaqt kelib, haqiqiy hayotda bu muloqotlar o‘z samarasini berishi ham mumkin.

Internet - bu deyarli barcha qiziqishlarni qondirish makonidir. Ba’zan tarmoqda ayrim axborotlarni izlab o‘tirishning ham hojati bo‘lmaydi. Ular har yerda o‘zlar taqdim etilaverishi sababli osongina erishish mumkin. Zamonaviy pedagog va psixologlar hozirga qadar virtual muloqot bola shaxsiy shakllanishiga qanday ta’sir etishi haqida bir xulosaga kelmaganlar. Ayrimlar bu faqat salbiy xususiyatlarnigina shakllantiradi deb bilib, bolalarning insonlararo munisabatlarida o‘zlarini tutish, histuyg‘ularini namoyon etish va mimikalariga yomon ta’sir etishini ta’kidlasalar, boshqalar virtual muloqot — zamonaviy kommunikatsiyaning juda qulay va yengil usulidir deb biladilar. Bolani Internetda muloqot qilishga o‘rganib borishida, ularga tarmoqda umuman, o‘z shaxsiy ma’lumotlari, uy telefoni raqami, manzili, shuningdek, ota-ona va yaqinlarining shaxsiy ma’lumotlarini berish mumkin emasligini tushuntirish zarur. Virtual «do‘stlari» orasida yomon niyatli kimsalarga duch kelish xavfi va ular bilan haqiqiy hayotda uchrashishlari, ishonuvchan odatlariga ko‘ra begonalar bilan dildan suhbatlashishlari xavfini alohida ta’kidlashlari zarur.

Bunday muloqotlar ko‘pincha kiberjinoyatchilar uchun juda qulay sharoit ekanligini har bir o‘smir bilmog‘i lozim. Ommaviy tarqatiladigan spam, iltimos bilan murojaat etiladigan SMS xabarlar, allaqanday shubhali «Tanlov»lar haqidagi e’lonlarga ishonmaslik — umuman, kompyuterga zanjirsiz bog‘lanib, butun hayot yo‘lini qora dog‘ bilan bulg‘ashiga olib kelishi mumkin bo‘lgan xavfli axborotlarga aldanmaslikni onglariga singdirish zarur.

Bugungi kunda ayrim ommaviy ijtimoiy tarmoqlarda 13 yoshga to‘limgan bolalarni ro‘yxatga olmaslik uchun cheklovlар qо‘yilgan. Ayrim kompyuter operatsion

tizimlarida ham «ota-on» nazorati funksiyasi mavjud bo‘lib, bolalarni tizimdan foydalanish vaqtligiga cheklov qo‘yish imkonini mavjud. U kompyuterdan o‘rnatilgan vaqtdan ortiqcha foydalanish imkonini bermaydi va avtomatik ravishda ishini to‘xtatadi. Agar farzandingizga kompyuter sotib olib, undan bilimlari doirasini kengaytirish maqsadida foydalanishiga ruxsat bergan ekansiz, bu bilan o‘zingizning ham oldingizga mas’uliyatlari vazifalar paydo bo‘lganini unutmasligingiz zarur.

Ayrim mamlakatlarda bolalarning o‘z tarmoqlari mavjud bo‘lib, ularda: ovozli o‘yinlar, multfilmlar, harflari yirik shriftda va bolalarga mos tushunarli tilda bayon etilgan matnlar berilgan. Mazkur saytlar kattalar ham kirib, ularni o‘rganishlari imkonini mavjud. Bunday tarmoq manbalarida bolalarga haqiqiy hayotdagi kabi virtual olamda ham tartib-intizom qoidalari mavjudligini tushuntirib borish eng birinchi navbatdagi vazifadir.

Kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) taraqqiyoti davrida tug‘ilib, ulg‘ayayotgan bolalar AKT sohasida dolzarb bilim va malakalarni jazzi kichkintoy davrilaridanoq o‘zlashtirib bormoqdalar. Ayrim sohalarda hatto kattalarga qaraganda, ko‘proq bilimga ega ekanliklari hech kimni taajjubga ham solmay qo‘ydi. Biroq shunday bo‘lsada, har qanday xavf-hatarning oldini olish maqsadida, ularga ko‘zquloq bo‘lish va Internet haqiqiy hayotdan uzoq ekanligi, undagi ko‘plab manbalar haqiqatga to‘g‘ri kelmasligini tushuntirish biz kattalarning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifamiz hisoblanadi.

### **XULOSA**

Xalqimizga xos, asrlar osha shakllangan ta’lim-tarbiya usullari qatorida farzandlarning kundalik hayoti, ularning nimalar bilan shug‘ullanayotganliklaridan o‘z vaqtida voqif bo‘lib borish talabi ham mavjud. Mana shu ota-bobolarimizdan qolgan tarbiyaviy usullarni har qanday davrda ham unutmaslik hamda o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashimiz zarur.

Bundan tashqari, hozirgi davrda jahoning qator davlatlarida o‘z salbiy ta’sirlarini namoyon etib ulgurgan. Internet tarmog‘idan bolalarni himoya etishga xizmat qiluvchi texnik imkoniyatlar mavjud - bu maxsus dasturlar bo‘lib, ular aynan salbiy ta’sir etuvchi, axloqsizlik, yomon odatlarni targ‘ib qiluvchi saytlarning ochilishiga yo‘l bermaydi, ya’ni agar o‘smir shunday axborotlarni hatto izlash tizimiga kiritsa, izlash natijalari samarasiz bo‘ladi

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. O’G’Li, A. N. K. (2021). O’SMIRLARDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 433-438.

2. Юсупова, О. С., & Умирова, С. М. Отношение формы и содержания в художественно-эстетическом выражении. *Научный вестник scientific reports*, 127.
3. Utanova, U. (2021). “KOMPYUTER AXBOROT MADANIYATI”SUBMADANIYATNING VUJUDGA KELISHI. Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти АХБОРОТНОМАСИ илмий-амалий журнали, 5(03), 62-66.
4. Mohinur, D. (2021). USE OF MOBILE AND COMPUTER GAMES AS A PSYCHOLOGICAL TOOL TO SHAPE STUDENT LEARNING PROCESSES. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(03), 10-13.
5. Otabaeva, F. T. (2019). TECHNOLOGY USING THE CASE-STUDY METHOD IN THE STUDY OF COMPUTER GRAPHICS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(12), 348-355.